

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH YO'LLARI

Davranova Gulbahor Numondjonovna

Osiyo Xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Musayeva Dilara Ma'rufovna

Osiyo Xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirish jarayoni tahlil etiladi. Bolalarda atrof-muhit haqidagi bilimlarni oshirish, tafakkur va tasavvur doirasini boyitish, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali usullari yoritiladi. Shu bilan birga, bolalarning qiziqishlarini rag'batlantirish, tabiiy o'zaro aloqa va o'yin faoliyati orqali dunyoni anglash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, dunyoqarash, bolalar rivojlanishi, o'yin faoliyati, muloqot, kuzatish, kreativ fikrlash, metodik usullar, ta'lim jarayoni, o'qitish, metodlar, dunyoqarash, ong, tafakkur, qobiliyat.

WAYS TO BROADEN PRESCHOOL CHILDREN'S WORLDVIEW

Abstract: This article analyzes the process of shaping and expanding the worldview of preschool children. It highlights effective methods for enhancing children's knowledge about the environment, enriching their thinking and imagination, and developing their social and cultural competencies. Additionally, methodological recommendations are provided for stimulating children's interests and broadening their opportunities to understand the world through natural interactions and play activities.

Keywords: preschool education, worldview, child development, play activity, communication, observation, creative thinking, methodological approaches, educational process, teaching, methods, consciousness, thinking, abilities.

Kirish: Maktabgacha yoshdagi davr — bu bolaning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqichdir. Aynan shu davrda bola atrofda dunyoni anglay boshlaydi, o'z bilim doirasini kengaytiradi va mustaqil fikrlash asoslarini


o'zlashtiradi. Bola dunyoqarashining kengligi va chuqurligi uning keyingi ta'lim olishi, ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda shaxsiy taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham pedagoglar va ota-onalarning maqsadi — bolalarda keng va to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish, ularni hayot haqidagi bilimlar bilan boyitishdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berish jarayonini tashkil qilish borasida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturini amaliyotda qo'llash joriy qilindi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi o'zgarishlar qatorida ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash, uni muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bunday yangilanish va o'zgarishlar bir qator ta'lim qonunlari hamda ta'lim dasturlari asosida amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism: Darhaqiqat, bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama rivojlanmoqda va juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, barkamol avlod qilib yetishtirishda, avvalo, uning sog'ligi, nutqi va boshqa sifatleri, ingliz tili jihatidan savodxonligiga ham e'tibor qaratish lozimligi e'tiborga olinmoqda. Ta'limning yangi mazmuni bolaning har tomonlama kamol topishiga, ularni faollashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda ota-ona va tarbiyachining zimmasiga katta ma'suliyat yuklashi shubhasizdir. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum qolipdan o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda tabiatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Dunyoqarash shakllanishining yana bir xususiyati shundan iboratki, u xususiy ko'rinishlardan umumiy ko'rinishlarga, ya'ni individual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlargacha rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog'liq ravishda rivojlanib takomillashib boradi.

Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu borada hozirgi kunda yoshlarimizning ongini o'stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular orqali ularni intellektual salohiyatli siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa, ilmiy dunyoqarashning kengligi ularning asosiy tarkibiy qismlari asosida shakllanadi.



Dastlab
dunyoni

individ
hissiy

sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy in'ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plangan bilimlar asosida individual dunyoqarash paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boraveradi. Ertaklar va ertaklardan foydalanish ham bolalarni o'qitishning juda samarali usuli hisoblanadi, chunki ertaklar qiziqarli va oson. Keyingi bosqichda, bolalar ertak o'rganganda rol o'ynashi yoki miriqib tinglashi mumkin. Ertaklar bolalarni tasavvur olamini rivojlanishiga, xotira va imkoniyatlarini boyishiga xizmat qiladi. Hikoyalar an'anaviy yoki jahon adabiyoti hikoyalari bo'lishi mumkin. Agar o'qituvchi an'anaviy hikoyalardan foydalansa, u nafaqat til uchun, balki didaktika va vatanparvarlik uchun ham dars berishi mumkin. Ertaklar yordamida bolalar darslardan hech qachon zerikishmaysadi. Birgalikda davom etib, bolalarni dars davomida ishlatilgan hikoyalarda aks ettirilgan hayotning boshqa sohalari bilan tanishishga undash mumkin.

Xuddi shuningdek, bu qayd etilgan dunyoqarash turlaridan tashqari ilmiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va shu kabi dunyoqarashlar ham mavjud. Bulardan tashqari dunyoqarashning ko'lami (individning butun hayoti mobaynida rivojlanib, kengayib boruvchi jihatlari), mazmuni (individ ongida voqelikning xilma-xil jihatlari qay darajada qamrab olinganligini aks ettiradi) va markazi yoki tayanch nuqtasi (individning qanday shaxsiy hamda ijtimoiy manfaatlar majmuasi doirasidan turib olam haqida fikr yuritishi) kabi jihatlari ham bor. Ma'lumki, inson o'z hayoti davomida o'zidan oldin o'tgan kishilarning turmush tajribasiga (tarziga), to'plangan bilim, ko'nikma va malakalariga, ya'ni qadriyatlariga tayanadi. Shu sababli ham dunyoqarash ayniqsa ilmiy dunyoqarash kishilarning axloq meyorlari, hayotni yaxshilash borasidagi ongli intilishlari, qiziqishlari mehnat faoliyatiga va turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ular hayotida katta amaliy ma'no (mazmun) kasb etadi.

Bolalarning yoshlikda dunyoqarashlarini shakllantirish oila davrasida bolalarning dunyoqarashini shakllantirishga asosan ertak, kichik hikoyalar va turli xil o'yinlarning o'rni juda katta bo'ladi. Bu borada metodik yondashuvlar asosiy vazifani bajaradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish jarayonida ta'lim-tarbiya jarayonining tamoyillarini o'rni juda kattadir. Tamoyillarga ko'ra, bolalarni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish, ularning huquqi, individual va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olib borish, har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash, bola sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash, o'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, mahalla bilan hamkorligini tashkil qilish kabilar yo'lga qo'yilishi tartibga solingan. Maktabgacha ta'lim bolalarning tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonidan keyingi bosqichlarda, shuningdek butun hayoti davomida rivojlanib borishga ahamiyatli sanladi.

Kompetensiya - bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuasi hisoblanadi. Bolalarga ta'lim berishda kompetensiyavi yondashuv bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu borada bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bolalarning jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayoning rivojlanishi, ijobiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish muhim. Bolalarning rivojlanish jarayonida ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyalarining ahamiyati alohida o'rin egallaydi. Kuzatish jarayonida bolalarga yangi so'zlarni o'rgatish davrida lug'atni faollashtirish mashg'ulotlarini tashkil etish ustida ishlash dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, umumiy holatda gap ustida ishlash dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, umumiy holatda o'rganish, ularning didaktik asosini belgilab dunyoqarashini kengaytirish ham mavzumizning predmeti hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, bolalarning yoshi, qiziqishi va yashash joyiga qarab har xil usul va mashg'ulotlarni tanlash kerak. Bu holda, o'qituvchilar va murabbiylar to'g'ri o'qitish maslahatlarini tanlashda katta rol o'ynaydi, chunki o'qituvchilar bolalarni yaxshiroq hayotiy pozitsiyasiga olib kelishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini kengaytirish — ularning shaxsiy va

intellektual rivojlanishining muhim omilidir. Ta'lim va tarbiya jarayonida bolaning qiziqishi, mustaqil o'rganish istagi va ijodiy tafakkuri doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanishi kerak. Har bir bola o'zining tabiiy bilishga chanqoqligi orqali hayotni, atrof-muhitni va jamiyatni to'g'ri anglab oladi. Demak, pedagoglar va otalar o'z faoliyatlarida bolalarning dunyoqarashini kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratishi, ularni har tomonlama rivojlantirishi muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4312-sonli qarori.
2. Abdullaeva Z., Tadjibaeva S. Maktabgacha ta'lim metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Yusupova M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.
4. Numondjonovna, D. G. (2022). Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 144-146.
5. Numondjonovna, D. G. (2022). Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 363-367.